

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 3



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммаед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Хамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддикова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оғли**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммаед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Хамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддикова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Yulbarsov Ochilbek Obidjon o‘g‘li</b> KORPUS TAHLILI ASOSIDA KORONAVIRUS (COVID-19) SO‘ZINING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI.....	4
<b>2. Jabborov Erkin Xolliyevich</b> TASVIRIY SAN‘AT TA‘LIMIGA OID KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MAZMUNI.....	9
<b>3. Шукурова Азиза Хайруллоевна</b> САРИОСИЁ ТОЖИК ЛАҲЖАЛАРИДА ТУРКИЙ СЎЗЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА УЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	14
<b>4. Ювашева Шоира Махамадовна</b> ПЕРЕВОДЧЕСКИЙ АСПЕКТ КУЛЬТУРНО-МАРКИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ.....	20
<b>5. Tagaeva Sayyora Ulashevna, Urazqulova Aziza</b> HOZIRGI ZAMON NEMIS TILI LINGVO DIDAKTIK SISTEMASIDA INGLIZ TILIDAN O‘ZLASHTIRILGAN ATAMALAR VA ULARNING STRUKTUR SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	25
<b>6. Лизахан Уразмбетова</b> АКТЁРЛЫҚ ШЕБЕРЛИГИН ӨЗЛЕСТИРИҮДЕ ГҮЗЕТИҮ ШЫНЫҒЫҮЛАРЫ.....	30
<b>7. Yuldasheva Dilshoda Musayevna</b> FRANZ BOAS, EDWARD SAPIR AND LEONARD BLOOMFIELD AS FOUNDERS OF AMERICAN STRUCTURALISM.....	34
<b>8. Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna</b> BOLALAR SHE‘RIYATIDA BADIY IFODA AN‘ANASI VA TAKOMILI.....	39




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna**  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
nuritdinovashahnoz@gmail.com

## BOLALAR SHE'RIYATIDA BADIY IFODA AN'ANASI VA TAKOMILI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola bolalar she'riyati bilan bog'liq bo'lgan A.Obidjon, A.Avloniy, H.H.Niyoziy, G'afur G'ulom, Sulton Jo'ra ijodkorlarning she'rlarida badiiyligi tasviriylik va ifodaviylik, muallifning badiiy til mahorati, individual uslubi, badiiy-estetik vazifa bajargan poetik ko'chimg'larga, obrazlar va ramzlar, yetakchi motivlar bilan bog'liq ma'lumotlar aks etgan. O'zbek bolalar she'riyatining dastlabki namunalari dayoq badiiy tasvir vositalari, badiiy san'atlardan keng foydalanilgani ayonlashadi.

**Kalit so'zlar:** obraz, ramz, tamsil, tashbeh, husni tahlil, motiv, tazod, poyetik

**Нуритдинова Шахноз Садридиновна**

Преподаватель Бухарского государственного университета  
nuritdinovashahnoz@gmail.com

## ТРАДИЦИЯ И РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВЫРАЖЕНИЯ В ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ

### АННОТАЦИЯ

Эта статья связана с детской поэзией: А. Обиджон, А. Авлони, Х. Х. Нийози, Гафур Гулам, Султан Джора, художники в своих стихах художественные и выразительные, художественные навыки автора, индивидуальные стиль, поэтические движения, которые исполняют художественные и эстетическая функция. Даже в первых образцах узбекской детской поэзии ясно, что широко используются средства художественных изображений и художественных искусств.

**Ключевые слова:** образ, символ, сравнение, аллюзия, качественный анализ, мотив, контраст, поэтичность.

**Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna**

Teacher of Bukhara State University  
nuritdinovashahnoz@gmail.com

## TRADITION AND DEVELOPMENT OF ARTISTIC EXPRESSION IN CHILDREN'S POETRY

## ANNOTATION

This article is related to children's poetry: A. Obidjon, A. Avloni, H.H. Niyoz, Gafur Ghulam, Sultan Jora, artists in their poems are artistic and expressive, the author's artistic language skills, individual style, poetic movements that fulfill an artistic and aesthetic function. , images and symbols, information related to leading motifs. Even in the first samples of Uzbek children's poetry, it is clear that the means of artistic images and artistic arts are widely used.

**Key words:** image, symbol, simile, allusion, analysis of quality, motif, contrast, poetic

O'zbek bolalar she'riyati ham avvalo umumshe'riyat bag'ridan o'sib chiqqanligiga ko'ra uning taraqqiyotida badiiy san'atlarning o'rni va ahamiyati beqiyos. Mumtoz adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz tarixida badiiy san'atlar, asosan, ma'naviy san'atlar va lafziy san'atlarga bo'lib o'rganib kelingan. Ma'naviy san'atlar bilimimizki, asosan, mazmun tushunchasiga asoslanadi, lafziy san'atlar esa shakl birliklariga tayanadi.

Badiiy san'atlarga doir A. Hojiahmedovning "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya", T. Boboyev va Z. Boboyevalarning "Badiiy san'atlar", Y. Ishoqovning "So'z san'ati so'zligi" singari asarlarida badiiy san'atlar tavsifi takomilini kuzatish mumkin. B. Sarimsoqovning "Badiiylik asoslari va mezonlari" kitobida ham badiiy san'atlarning obrazlilikni yuzaga keltirgan bir necha turi haqida fikr yuritilgan. Darhaqiqat, badiiy san'atlarning qamrovi juda keng, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega, tadqiqi ham shunga ko'ra serqirra. Ayrim tadqiqotlarda esa bu sohada amalga oshirilgan ko'plab ishlarning umumlashma nazariy tavsiflari ham berilgan. Jumladan, yuzga yaqin she'riy san'atlarning o'n ikki guruh asosida tasniflanishi ixchamlikka xizmat qila oladi. Binobarin, **ma'naviy san'atlardan:** *mubolag'a, tashbih, tamsil, tashxis, intoq, talmih, istiora, muqobala, kinoya, irsoli masal, savolu-javob, iqtibos;* **lafziy san'atlardan:** *tajnis, tanosub, tazod, takrir, kitobat* kabilar hozirgi davr bolalar she'riyati, qolaversa H. Imonberdiyev va A. Ko'chimov ijodida kuzatilgani bilan diqqatga sazovor.

Masalan, A. Obidjon ijodida qo'llangan badiiy san'atlar haqida fikr yuritgan Z. Mamatalimov shunday yozadi: "Bolajonlar she'rda qo'llanayotgan badiiy san'atlarni yaxshi anglamasliklari mumkin. Ammo she'rni ularga suyumli qiladigan, misralar qatidagi ma'noni uqishni osonlashtiradigan, she'r atalmish mo'jizaning sirlaridan bahramand etadigan vositalardan biri lafziy san'atlardir". Tadqiqotchi shu munosabat bilan shoir ijodida qo'llangan *tashbeh, takror, jonlantirish, intoq, tashxis, anafora* kabilar haqida to'xtalib o'tadi. Shuningdek, ramziylik ham bolalar she'rlarida yetakchiligi qator misollarda dalillanadi. Ya'ni A. Obidjonning "Tut" she'rida qo'llangan takror, ramziyliklar tahlil qilinadi.

Muallifning mazkur yo'nalishdagi "Anvar Obidjon ijodida ma'naviy san'atlar" maqolasi ham shoir she'rlaridagi tajohul ul-orif, istiora, tashbehlar ortida dalillash (motivirovka) tasviri, shuningdek, husni ta'lil – chiroyli dalillash san'atlari o'rganilgan.

Ko'rinadiki, bolalar she'riyatining badiiylik tasviriylik va ifodaviylik, muallifning badiiy til mahorati, individual uslubi, badiiy-estetik vazifa bajaragan poetik ko'chimgilarga, obrazlar va ramzlar, yetakchi motivlarga ham bog'liq ekan. Shu jihatdan qaraganda, o'zbek bolalar she'riyati ham turli davr ijodkorlarining badiiy-estetik maqsadlariga ko'ra rang-baranglik kasb etib keldi.

"Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib "badiiy tasvir va ifoda vositalari" deb ataladi, – deb ta'kidlaydi D. Quronov badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda "poetik vositalar", "sintaktik figuralar", "stilistik figuralar" kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning bunisi tasvir, bunisi ifoda vositasi deyishlik ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot so'z vositasida tasviraydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Ya'ni, ko'p hollarda bitta vositaning o'zi ham tasvir, ham ifodaga xizmat qiladi. Faqat lirik asarlarda qo'llaniluvchi ayrim vositalar (mas., tovush takrorlari) borki, ular asosan ifodaviylikni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Binobarin, o'zbek bolalar she'riyatining dastlabki namunalari dayoq badiiy tasvir vositalari, badiiy san'atlardan keng foydalanilgani ayonlashadi. A. Avloniyning "Maktab" she'ri shu jihatdan e'tiborli. Barmoq vaznidagi

to‘qqiz bandli mazkur she‘r jadid maktablarining tavsifiga bag‘ishlangani bilan ajralib turadi. “Maktab” so‘zi she‘r davomida yigirma yetti marta takrorlangan, har band oxirida o‘g‘lonlarning unda g‘ayrat bilan o‘qishi uqtiriladi. Garchi, maktab mavzusi o‘tgan asr boshlaridagi barcha ijodkorlar uchun an‘anaviy obraz hisoblansa-da, bu she‘r maktab yoshidagi kichkintoylar tasavvuri, qiziqishlari, tili va tushunchasiga mos tarzda ifodalangani bilan muhim. She‘rning birinchi bandi a-a-a-a shaklida qofiyalangan, qolgan bandlarining dastlabki uch misrasi o‘zaro qofiyadosh, to‘rtinchi misra esa birinchi bandga monand butun she‘rda takrorlanib (b-b-b-a, d-d-d-a), *ritmik, kompozitsion butunlikni ta‘minlagan*:

Maktab uyi – dorulamon,  
Maktab hayoti jovidon,  
Maktab safoyi qalbi jon,  
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

“Maktab” so‘zi misradam-misraga o‘tgani sayin yaxlit obrazga aylana boradi: uning eng osoyishta, tinch va xotirjam, yoshlar hayotining mazmuni, huzurbaxsh uy ekanligi anglashiladi. Bu ayni paytda musaffolik, samimiylik va beg‘uborlikka yo‘g‘rilgan *bolalik ramzini* ham anglatadi. *Maktab va bola* (o‘g‘lon) she‘r davomida egizak tushuncha sifatida taassurot qoldiradi. Buning sabablaridan biri shoirning metaforalardan unumli foydalangani deyish mumkin. Maktabning doruladab (odob-axloq uyi), Ollohning ehsoni, ajib gulzor singari sifatlar bilan ta‘riflash; uni duru gavhar manbai, jannat eshigini ochuvchi, jaholatdan yiroqligi (qo‘ying-chi, yigirma yetti sifati) kabilar badiiy-estetik ahamiyatga ega, albatta. Chunki, D.Quronov ta‘kidlaganidek, bu tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirishi jihatidan shu matndagina ko‘chma ma‘noda qo‘llangan, shoirning assotsiativ fikrlashining mahsuli ekanligi asoslidir:

Maktab berur Qur‘on siza,  
Maktab berur imon siza,  
Maktab berur huron siza,  
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘g‘lon!

Dastlabki misrada, metonimiya vositasida Qur‘onni o‘qishdek buyuk fazilat, qobiliyat, iste‘dod haqida so‘z bormoqda. Bunda maktabning Qur‘on berishi o‘z ma‘nosida ham o‘quvchilarga darsliklar tortiq etilishi ma‘nosi anglansa, uni o‘qiy olishga musharrflik tushunish, anglash, qiroat qilish kabi serqatlam ma‘no aks etadi. Ikkinchi satrda esa ma‘no ya‘nada kuchaygan: iymonlilik-musulmon xalqi uchun chin insoniylik, komillik demak. Bu endi aynan, Qur‘oni karim tilovati, ma‘no-mohiyatini teran anglagan, uni idrok qila olgan ma‘rifat ahliga xosdir. Va nihoyat bandning uchinchi satrida shoirning individual yondashuvi, eng oliy niyati mujassamlashadi. Nega? Chunki shoir aynan maktab kelajakda “huron”- hurlik, erk va ozodlikni berishiga astoydil ishonadi. Garchi, ular o‘z vaqtida jaholat tufayli bunga erisholmagan bo‘lsalar ham, kelajak avlodga - g‘ayrat bilan o‘qiydigan o‘g‘lonlarga umid qiladilar.

H.H.Niyoziyning “Maktab xususida” deb nomlangan turkum she‘rlari ham sakkizta bo‘lib, har biri o‘n to‘rt banddan iborat. Ularning barchasida “maktab” anoforasi turli metoforalar orqali, yagona poyetik obraz darajasiga ko‘tarilgan:

Maktab millat chirog‘i,  
Millatning zo‘r yarog‘i,  
Maktabsiz har millatni  
Qirar bir cho‘b tarog‘i.

Maktab millat atosi,  
Ham suyuqlu anosi.  
Ato, anosiz qolsa,  
Qandoq yashar bolosi.

Bunda dastlabkiikki ikki misradagi fikrga keying ikki misraning mazmuni o‘zaro qiyoslanishi, parallel kelishini ham kuzatish mumkin. Millat uchun maktabning yo‘qligi yosh bolalar uchun ota-onasiz yashash uqubatiga tamsillanmoqda. Shunga o‘xshash, she‘rlarning barcha 1-2-misralar maktabning “millat quyoshi – *ko‘z* ila *qoshi*”, “millat bog‘i – suyanchiq tog‘i”, “qorong‘u oyi – oltin



soyi”, “chin do‘stimiz-tan po‘stimiz” tarzida qofiyalangan bo‘lsa, 3-4-misralari shunga javoban “*qoqsiz, ko‘zsiz* kishining, xunukdir *boshi*”, “dushmanni qiruvchi zo‘r yarog‘”, “maktabga kirmaganlar, bo‘lar bir non gadoyi”, “besh-olti yil o‘qusak, bitar har kam-ko‘stimiz” tarzida qofiyalanib, tamsiliy ifodaning she‘r kompozitsiyasidagi muhim o‘rnini ham oydinlashtiradi. Bu turkumdagi she‘rlarning umumiy motivi esa ilimga, maktabga havas uyg‘otishdir.

Darhaqiqat, H.H.Niyoziyning bolalar uchun yozgan she‘rlarida tashxis, *tanosub*, tazod kabi badiiy san‘atlarni faol qo‘llanishi, shuningdek, poetik ko‘chimlar orqali fikrni ta‘sirchan, qofiya, ritmda ham soddalik kuzatiladi. Masalan, *tanosub* san‘atida ma‘no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llash, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratilishi nazarda tutilsa, Hamza Hakimzodaning *ato, ano, bolo - ota, ona, bola* so‘zlari oila tushunchasini, *qosh, ko‘z, bosh* kabilar tana a‘zolariga xos tushuncha ekanligini ko‘rsatadi.

Shunga o‘xshash, Elbek ijodida ham mazkur mavzu va motivning o‘ziga xos yangicha talqinini, tamsilini ko‘rish mumkin. Professor O.Safarov shoirning “O‘qur choq” to‘rtligi parallelizm negizida bitilganini etirof etib, “qanot” so‘zi rang-barang ma‘noda tovlanishini ta‘kidlaydi:

G‘oz qanoti oq bo‘lur,

Er qanoti ot bo‘lur.

Bolalarning qanoti –

Maktabda o‘quv bo‘lur.

Dastlabki satrda qanot – o‘z ma‘nosida, ammo oq rangdagi jilosi bilan xayrlilik, ezgulik sifatiga ega. Ikkinchi satr aslida xalq maqoli bo‘lib, unda “qanot” so‘zi ko‘chma ma‘no kasb etgan. Ot – yigitning qanoti, demak, olis manzillarga tez yetib borishi vositasi. Tezlik taqozosi - qushning uchish xususiyatini otga ko‘chirishni mantiqan talab etgan.

G‘afur G‘ulom ijodida kichkintoylar, bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallab yozilgan talay she‘rlar mavjud. Shoirning o‘tgan asrning 30-yillarida yozilgan “Turg‘un va O‘rdak” she‘ri esa ramziy obrazlarga boyligi, motivning qiziqarli talqini bilan diqqatni tortadi. Darhaqiqat, uning janriy xususiyati haqidagi munosabatlarning bahsli ekanini ham ta‘kidlashga to‘g‘ri keladi. Shoir to‘plamlarida u she‘rlar qatorida berilgani uchun M.Jumaboyev unga she‘r sifatida munosabat ko‘rsatsa, A.Suyumov masal janri namunasi sifatida qaraydi: “G‘afur G‘ulomning masal janrini yuksaltirishda ham alohida hissasi bor. Shoir bu janrda anchagina asarlar yozdi. “Turg‘un va O‘rdak” masali shu tipdagi asarlardandir”. Akademik V.Zohidov endi uni doston janri namunasi qatorida e‘tirof etib, quyidagilarni “G‘afur G‘ulom kitobxon bilan oddiy suhbatlashish yo‘sinida bolalar didiga muvofiq tarzda ham sokin, ham o‘ynoqi manera bilan yozadi, o‘zining aktiv, foydali o‘git va hayotiy nasihatlarini dalillash, asoslash maqsadida ko‘pincha ramziy hikoya, kichik voqeaband dostonlar ham yaratadi. Masalan, “O‘rdak va Turg‘un” dostoni bu jihatdan juda diqqatga sazovor”. Shu o‘rinda O.Safarovning har qanday voqeaband she‘r doston bo‘lavermasligi, qolaversa, majozilik negizida qurilganligi ham uni darhol masalga aylantiravermasligi, binobarin, *asar kompozitsiyasiga nazar tashlansa, darhol xalqimizda hozir ham keksa avlod lafzida davom etayotgan o‘z fikrini asoslash va ta‘sirchanligini oshirish uchun biror tamsil yo naql keltirish an‘anasini esga soladi* (ta‘kid bizniki – Sh.N.) degan fikrlarini ta‘kidlash joiz. Olimning e‘tiroficha, G‘afur G‘ulom ham ana shu an‘anaga ijodiy tayanib, o‘zbek bolalar adabiyotida, jumladan, she‘riyatida maktab hayotining turli qirralarini badiiy tahlil qilish, xususan, bolalarning o‘qishda bo‘shanglik qilib kuzgi sinovda yoki sinfida qolayotgandagi ruhiy olami tahliliga e‘tibor bergan. G‘afur G‘ulom boshlang‘ich sinfda bo‘sh o‘qib, sinfida qolgan Turg‘unga o‘xshash bolalar ko‘nglini ko‘tarmoqni ko‘zlab «O‘rdak va Turg‘un» asarini yozgan.

Sinfda qolib o‘qish yosh bola ko‘nglini qay darajada cho‘ktirishi, atrofdagi o‘rtoqlaridan uyatga qolish hissini anglagan shoir Turg‘unga o‘z xatosini anglash uchun O‘rdak bilan kechgan voqeadan saboq bermochi bo‘ladi. Asarga naqlga xos an‘anaviy poyetik tamsiliylik xususiyatini bag‘ishlangani esa nihoyatda muhim. O.Safarov shu sababli bu asarni she‘riy naql-ertakning go‘zal namunasi, deb baholaydi. Asar shunday boshlanadi:

Bir bor ekan, bir yovvoyi o‘rdak bor ekan,

Ko‘m-ko‘k quyuoq o‘rmonchada yakka-yu yolg‘iz.

Shu yaqinda bir anhorcha, qirg‘og‘i ko‘rkam,

O‘rdak shunda cho‘milarkan kecha-yu kunduz.

O‘rdak ana shu anhorchada “qayg‘u nima, muhtojlik qanday”ligini bilmay, “kichik murg‘ak baliqlar”ni “ochiqqanda tumshug‘i” bilan tutib, hech narsaga zoriqmay yutib-oshab yurgan oqshomlarning birida “to‘lin oyli kecha”da “o‘rdak ko‘zi sevinch-la porlab”, “anhorchada yana bir oz suzmoqchi bo‘ldi”. “Keza-keza ochiqqanin ko‘p yaxshi bildi.” Shunda u har galgiday baliq ovlashga tushdi, lekin har gal baliq deb oy nurida jilolangan “mayda-mayda uzun to‘lqinlar”ga tumshuq solar, tumshug‘iga baliq ilinmasdi. U esa “havo sovuq bo‘lgani-chun” suv ham salqinlanib, baliqlar allaqachon “issiq buloqqa jo‘nab” qolganini xayoliga ham keltirmasdi. “Baliqlarday yaltiragan to‘lqinlar” esa, titrab-titrab “o‘rdak ko‘zin javdiratib qocha beribdi.” Natijada, sho‘rluk o‘rdak ov qilolmay, ochligicha kattagiga qaytibdi. Boshini qanoti ostiga suqib, och uxlab qolibdi. Ertasiga havo isib, baliqlar yana anhorni to‘ldirib o‘ynoqlasalar-da, o‘rdak endi ularga hech qaramas, ularni oydinlik shu‘lasi deb bilib umidsiz ahvolga tushib, ov qilmoqdan voz kechibdi.

Ibratli saboq chiqarishga xizmat qiluvchi voqea mana shu: o‘rdakning har gal oy nuriga tumshuq solaverib quruq qolaverishi va bundan umidsizlikka tushib ovdan voz kechishi. Demak, Turg‘unning saboq olishi uchun keltirilgan bu hikoya asosli saboqdir. U endi o‘rdakka o‘xshab umidsizlikka tushib, mashg‘ulotdan voz kechishi emas, balki ham aql, ham mehnat bilan astoydil tirishsa, maqsadiga yetishini shoir uqtirmoqchi. Haqiqatan, she‘rdagi ramziy O‘rdak obrazi o‘quvchini tafakkurlashga yetaklaydi. Mehnatsevarlik, intiluvchanlik motivi bolalar she‘riyatining asosini belgilovchi omillardan biri ekanligini anglatadi.

Umuman, G‘afur G‘ulom ijodida bu singari badiiy san‘atlar, tashbeh va tamsillar ko‘pligiga guvoh bo‘lish mumkin:

Giloslar *labingiz aksi bo‘lgandek,*  
*Labingiz aksidir* bu bog‘da gilos.  
 Siz uchun she‘r yozar bo‘lgan chog‘imda  
 O‘sma siqib berdingiz siyohimga mos.

Shoir *tardi aks san‘ati yaratib*, qizlar labidagi rangga gilos rangini muvoziy keltirib, qizlar siqqan o‘sma suvini siyohga mengzaydi.

Sulton Jo‘ra ham G‘afur G‘ulom an‘analari asosida “Tinish belgilarning majlisi” she‘rida jonsiz narsalarni, predmetlarni jonlantirishga erishadi. Majlis voqeasi she‘r qurilmasi, kompozitsiyasi uchun asos bo‘lib, unda *intoq, tashxis, tamsil* singari badiiy san‘atlar yonma-yon kelgan. Shoir tilshunoslikning tarkibiy qismi bo‘lgan punktuatsiyaning mohiyatini nuqta, vergul, so‘roq, undov, tire, qo‘sh tirnoq va boshqa tinish belgilari poyetik obrazlarining majlisdagi nutqi orqali tushuntirishni ko‘zlaydi.

She‘rda har bir tinish belgisining o‘zi so‘z oladi. Ular o‘z vazifalarini ta‘riflashda muhim tamsillar keltiradi. Sulton Jo‘ra tinish belgilari nutqini ularning ishlatilishi qoidalariga mos keluvchi misol – satrlar shaklida qurishi esa uning kompozitsion xususiyatidir.

She‘rning yana bir tinish belgilari o‘z vazifasini bayon qilishda, o‘zlari qo‘llanadigan qoidaga mos keluvchi satr- poyetik nutq vositasiga amal qiladilar:

– *O‘rtoq Rais*, endi menga navbat bergin, –  
 Deb so‘z oldi kichik to‘qmoq – bizning vergul.  
 – Gar undalma gapda kelsa qoq o‘rtada,  
 Uning ikki yonboshida men jo‘rttaga.  
 “Qani endi, *undalmaxon*, qochib boq-chi”,–  
 Deb bo‘lurman, yubormayin, unga soqchi.  
 Gar undalma gap so‘ngida kelsa, u choq,  
 Undan oldin qo‘yilurman, *tushun o‘rtoq!*

Ko‘rinayotirki, vergulning poyetik nutqi undalma gap boshida kelsa – undan keyin, gap o‘rtasida kelsa, ikki tarafidan, gap oxirida kelsa, undan oldin qo‘yilishi qoidasiga mos qilib qurilgan. Shoirning san‘atkorligi shundaki, Nuqta, So‘roq, Undov, Qo‘sh tirnoq, Tire kabi tinish belgilari poyetik nutqlarini ham qo‘llanilishi qoidalariga mos qilib qurgan, shu asosda majlisga xos tortishuv ruhini keltirib chiqargan. Natijada har bir tinish belgisi o‘ziga xos ko‘rimli ramziy obraz darajasiga



ko'tarilgan: undov belgi – mirzaterakka, nuqta – koptokka, so'roq belgisi – o'roqqa, vergul – to'qmoqchaga, qo'shtirnoq – qiziqchiga, tire – gugurt cho'piga o'xshatilgan, hatto nuqtaning grammatik mohiyati “fikrlar stansiyasi”, vergulniki esa – “fikrlar raz'yozdi”ga qiyoslanib, u yoki bu tinish belgisining umumlashma badiiy obrazi yaratilgan. Bunday badiiy detallar orqali o'quvchiga e'tiborli bo'lish, gapda tinish belgilarini to'g'ri qo'llash, umuman savodxonlik motivini ifoda etishi bilan an'anaviydir.

Shukur Sa'dulla ijodida ham tamsiliy she'rning o'ziga xos namunalari uchraydi. “Qiz va gul” – shu jihatdan e'tiborli:

Daryo oqar jo'sh urib,  
Sohil to'la gul-lola.  
Ko'kka boqib, g'oz turib,  
Kuylar jajji qiz bola.  
Sochlariga gul taqib,  
Oro berar o'ziga.  
Daryo emas, gul oqib,  
Ko'rinar qiz ko'ziga.  
Daryo labi lolazor,  
Kuylar jajji Gulbahor!

O.Safarov bu she'rning o'ziga xos manzara kasb etishini shunday izohlaydi: “Sirtidan mo'jazgina ko'rinadigan bu she'rda faqat “jo'shqin daryo” va “ko'kka boqib”, “g'oz turib” kuylayotgan “jajji qiz bola” obrazlari borday tuyuladi. Aslida esa, shoir she'r yakunlanmasida qizcha nomini ma'lum qilib, asarni yangi *bir ramziy obraz* – bahor obrazi hisobiga boyitadi. Gulbahor gapiruvchi ekspressiv nom. Uning timsolida “sochlariga gul taqqan” baxtiyor qizaloqlarimiz hamda tabiatga fayz kiritib kelayotgan ko'rkam fasl obrazlarini yorqin tasavvur qilish mumkin”.

Anglashiladiki, tamsil san'ati bolalar she'riyatida ham ma'lum badiiy-estetik, kompozitsion vazifalarni bajarib kelgan. Tamsil san'atning mumtoz she'riyatimizda qo'llanilishi alohida tadqiqot sifatida o'rganilgan. B.Rajabovanning nomzodlik dissertatsiyasida mazkur san'at turining qator xususiyatlari oydinlashgan. Binobarin, tamsil atamasi arab tilidan olingan bo'lib, misol keltirish, o'xshatish, shuningdek, forsiy, arabiy, turkiy lug'atlarga ko'ra maqol, majoz, masal, masal keltirish, taqqoslash kabi ma'nolarni bildirishi ta'kidlangan. Ayrim ishlarda, tamsilda fikr, da'voni tinglovchining yodida qoladigan dalillar bilan mustahkamlash xususiyati kuchli degan fikr ilgari suriladi. Tojik adabiyotshunosi T.Zehniyning fikriga ko'ra, shoir o'z da'vosining isboti uchun o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotdan, tajriba va amaliyotdan, shaxsiy kuzatishlaridan misol keltiradi degan mulohaza e'tirofli. Uning nazm va nasrda qo'llanishi ham e'tiborga loyiq. Tamsilning o'ziga xos xususiyati sifatida poyetik uslubning yetakchi san'at maqomiga yetgani, lirikada realistik tasvirni kengaytirgani ta'kidlanadi.

“Tamsilning asosan to'rtta funksiyasi bor,– deb tasniflaydi Z.Mamajonov: 1) narsa-hodisa mohiyatini boshqa narsa-hodisa orqali ochish; 2) lirik mushohada predmetiga g'oyaviy-hissiy munosabatni ifodalash; 3) keltirilgan fikrga izoh – illustratsiya vazifani o'tash; 4) fikrni dalillash”. Tamsil irsolu masal va talmeh bilan deyarli o'xshash bo'lib, faqat misolni qayerdan olishiga ko'ra farqlanishi ham o'rinli ta'kidlangan. Ya'ni tamsil san'atida misol voqelik (maishiy turmush va tabiat) dan olinishi e'tirof etiladi.

Shu ma'noda aytish mumkinki, lafziy va ma'naviy san'atlar bugungi davr she'riyatida qayta jilolanib, yangi ko'chimlarni yaratishga asos bo'lmoqda. Xususan, anoforalar ham bugungi she'riyatimizda o'ziga xos bir yo'nalish sifatida ijodkorlarga hamdam. Aytaylik, anofora so'z yoki so'zlar guruhining misra yoki band boshida takrorlanishi, so'z takrorining ma'lum maqsaddagi ko'rinishi ekanligi nazarda tutilsa, zamondosh shoirlar davr uchun o'ta dolzarb, muhim hisoblangan fikr, his-tuyg'uni keskinroq ta'kidlash, kichkintoylarga yorqinroq anglatish maqsadini ko'zlayotganiga guvoh bo'lamiz.

Ta'kidlash ham o'rinliki, hozirgi bolalar she'riyatida qo'llangan badiiy vositalar ko'proq ijtimoiy-estetik ahamiyat kasb etgan. Bu haqda Q.Qahramonov quyidagi fikrlari e'tirofli “Bu davrga kelib bolalar adabiyotiga faqat ma'rifiy-tashviqiy tushuncha sifatida emas, balki badiiy-estetik hodisa

deb qarash yetakchilik qila boshladi. Natijada bu davrda bolalar adabiyoti namunalarida badiiy mukammallikka intilish, obrazlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda lirizm, fikrchanlik, majoziylik kabi xususiyatlar yetakchi tamoyillarga aylana boshladi”.

### Foydalanilgan adabiyotlar

---

1. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya – Toshkent: Sharq 1998 – B.11.
2. Sarimsoqov B. Бадийлик асослари ва мезонлари [Матн] : рисола / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Ҳ. Аҳмедов. – Тошкент: Bookmany print, 2022. - 252 б.
3. Mamajonov Z.A. O`xshatish asosidagi she'riy san'atlarning nazariy tavsifi va tasnifi. F.f.b.f. (PhD)diss. avtoref.–Toshkent, 2017. – 48 b.
4. Маматалимов З. Анвар Обиджон ижодида маънавий санъатлар. “Ўзбекистонда илм-фаннинг ривожланиш истиқболлари” халқаро илмий-амалий анжумани. 2022 йил 30 ноябрь. –Б.602
5. Д.Куროнов, З. Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик лугати / ф.ф.д. Д.Куруновнинг умумий таърири остида. - Тошкент: Akademnashr, 2010 йил. - 400 б..
6. Сафаров О. Болаликнинг ойдин осмони. Т. 2007. –Б.225
7. Суюмов А. Болалар адабиёти. Қўлланма, 143-б.
8. Зоҳидов Воҳид. Улуғ шоир ўғитлари. Т. «Ёш гвардия», 1978, 16-б.
9. Сафаров О. Замонлар тонгининг чароқларисиз. Т 2003.
10. <https://kutubxona.samduuf.uz/download/4719>
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Olaqanot>
12. <https://qvz.uz/qiziq/hakka-haqida-qiziqarli-faktlar.html>